

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№10-SON

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621

2025-YIL, OKTABR



OPEN  ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, “Marketing” kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU “Marketing” kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrayevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musheva Shoira Azimovna, i.f.n., SamSI, “Marketing” kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, “Innovatsion menejment” kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, “Axborot texnologiyalari” kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, “Menejment” kafedrasini mudiri, dotsent;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, “Yashil iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abduxayidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, “Turizm va servis” kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU, “Biznes boshqaruvi va logistika” kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University “Iqtisodiyot” fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Boltaev Umidjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti “Iqtisodiyot va ko'chmas mulkni boshqarish” kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.n., DSc, NamDTU, “Menejment” kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsent v.b.

Elektron nashr 661 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-oktabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

MINTAQALAR RIVOJLANISHINING IMIJ YARATISHGA ASOSLAGAN NAZARIYALARI.....	7
Duschanov Alisher Sherzod o‘g‘li	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УСЛОВИЯХ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА: СЕЗОННОСТЬ И МИНИМИЗАЦИЯ ЕГО НЕГАТИВНОГО ВЛИЯНИЯ	14
Муминов Нозим Гаффарович, Қодирзода Фазлиддин Садриддин, Гусейнов Хафиз Фехруз Оғлу, Хубони Сорбон	
О‘ЗBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSION PORTFELNI BOSHQARISHNING SAMARALI TIZIMINI JORIY ETISH.....	21
Madrimov Shuhrat Bahodir o‘g‘li	
О‘ZBEKISTONDA TERICHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	28
Kadirova Maraljan Matyakubovna	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATI NATIJADORLIGI VA UNI SAMARALI BOSHQARISH.....	38
Muminov Dilmurod To‘xtasinovich	
О‘ZBEKISTONDA ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARI UCHUN AKSIZ SOLIG‘I BIRXILLASHTIRILGAN STAVKALARINING SANOAT KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI	45
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro‘zumurat o‘g‘li, Otabekov Otajon G‘ayrat o‘g‘li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
SANOAT INFRATUZILMASINING ASOSIY KOMPONENTLARI VA ULARNI BOSHQARISH HAMDA OPTIMALLASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	51
Rasulov Jamshid Karimovich	
О‘ZBEKISTONDA BIG DATA VA SUN‘IY INTELLEKT (AI) YORDAMIDA TO‘QIMACHILIK KORXONALARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH	59
Rustambekov Djasur Askarovich	
THE ROLE OF AGRICULTURE IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY	66
Saurova Inobat Ikramovna, Kadirbergenova Shaydo Umirbekovna	
О‘ZBEKISTON QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENT STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	73
Temirov Azizbek Voit o‘g‘li	
UZUMCHILIK SOHASIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR VA ULARNING TAHLILI	87
Tursunov To‘lqin Jo‘raqulovich	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARIDAN FOYDALANISH	98
Ubaydullayev Lutfulla Xabibullayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNI VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	104
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
О‘ZBEKISTON HUDUDLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY TABAQALANISH DARAJASI TAHLIL QILISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Ibragimov Bahrom Bahodirovich	
IPAKCHILIK KORXONALARDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISH MODELLARINI ISHLAB CHIQISH.....	117
Aliyeva Nodiraxon Abdumalikovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA IQTISODIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	124
Alimov Muxammadbobur Ibragimjonovich	
ВНЕДРЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ «УМНОГО ГОРОДА» В УПРАВЛЕНИЕ ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНЫМ ХОЗЯЙСТВОМ	131
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли	

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМ РАЗВИТИЕМ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	141
Ортикхужаева Юлдуз Азатовна	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH USTUVOR MASALALARI.....	151
Aliev Yashnarjon Egamberdievich	
RESURS TEJAMKOR QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA TARMOQ SAMARADORLIGI.....	157
Allasugirov Nurmuxammed Baxtiyarovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING ASSORTIMENT SIYOSATI VA UNI BOSHQARISHGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	163
Boboxo'jayev Baxtiyor Nazirxo'jayevich	
QURILISH SANOATI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MOHIYATI VA SHART-SHAROITIARI.....	170
Boltayev Umidjon Talant o'g'li	
UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA MASHINAVIY O'RGANISH USULLARI ORQALI TALABNI TAHLIL QILISHGA USLUBIY YONDASHULAR.....	182
Sharibaev Rasuljon Nosir o'g'li, Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich, Ibragimov Isroil Usmanovich	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА.....	189
Ахмедов Камолхон, Исраилов Рустамбек Ибрагимович	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INVESTITSİYALARDAN UNUMLI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	198
Isakov Axmadali Esanbaevich	
KORXONALAR EKSPORT SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	207
Karrieva Yakutjan Karimovna	
СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ ПО ПОКАЗАТЕЛЯМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ.....	214
Ахмедов Камолхон, Исраилов Рустамбек Ибрагимович	
FRANCHAYZING VA KLASSTER YONDASHUVI SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI.....	225
Sharibaev Rasuljon Nosir o'g'li, Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich, Ibragimov Isroil Usmanovich	
ELEKTRON TIJORATDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	231
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI HUDUDIY RIVOJLANTIRISH MODELLARI VA MEZONLARI.....	238
Sharipov Rasulbek Siddiqovich	
PARKENT TUMANIDA OLTIN BEL TOG' KURORTINI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI.....	246
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Ishmuratov Baxodir Xusanovich, Mahmudov Ziyoviddin Shamsiddinovich, Fatema Nabizada Javid	
MINTAQADA KLASSTERLARNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MODELLARNI QO'LLASH MASALALARI.....	260
Kadirov San'at Yuldashevich	
AGROKLASSTERLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH.....	266
O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BIZNES MODELLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	273
Saatova Lolakhon Ergashevna	
HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA'SIRINI BAHOLASH.....	281
Salayeva Lobar Ulug'bek qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING BARQARORLIGINI TA'MINLASH OMILLARI.....	290
To'rayev Sardorbek To'rayevich	
MINTAQQA IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	297
Turayev Og'abek Kaxramonovich	

TRANSFORMATSION IQTISODIY RIVOJLANISHDA SHAHAR BOSHQARUVINING YANGI MODELI SIFATIDA URGANCH TAJRIBASI	305
Radjabov Bunyod Madirimovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIVAVIY PUL OQIMLARI VA STRATEGIK MARKETING INTEGRATSIYASI.....	312
Masharipova Shahlo Adambaevna	
EKSPORT FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH JARAYONIDA MOLIVAVIY MEXANIZMLARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI	320
To'rayeva Yulduz Shamsiddin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	328
Tursunxo'jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi	
OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR BILAN TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	336
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SUN'IY INTELLEKT VA ANALITIK PLATFORMALAR YORDAMIDA RAQAMLI MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	345
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
BARQAROR MAHALLANI REJALASHTIRISHDA AQLLI MAHALLA TIZIMI IMKONIYATLARI.....	356
Qulmatova Sayyora Safarovna	
OLIY TALIMGA TALABALARNI JALB ETISHNING RAQAMLI MARKETING VOSITALARI	362
Isamuxametov Shukurullo Asatullayevich	
BANK MENEJMENTIDA MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLARNI BOSHQARISH (CRM) TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	369
Kuliev Naim Xalimovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING IJTIMOIIY TARMOQLARDAGI REYTINGINI BAHOLASHGA YONDASHUVLAR	382
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
MINTAQAVIY XIZMATLAR SOHASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA MENEJMENT SIFATINING O'ZARO BOG'LIQLIGI	388
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
FRANCHAYZING BRENDLARI UCHUN "BRENDLUK" KONSEPSIYASINING ILMIY ASOSLARI VA AMALIY NATIJALARI.....	399
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQI IQTISODIY SALOHIIYATINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	410
Turayev Og'abek	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA DIVERSIFIKATSIYA STRATEGIYASINING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIRI	418
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING TASHQI SAVDO FAOLIYATIGA BANKLAR TOMONIDAN HISOB-KITOB XIZMATI KO'RSATISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	427
Ibodullayeva Ma'rifat To'liqin qizi	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA MEXNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	436
Yusupova Dildora Turadjanovna, Musayev Shavkatjon Kayumjonovich	
O'ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH	441
Jumayev Shuxrat	
IMPROVING CONSUMER RIGHTS PROTECTION MECHANISMS IN UZBEKISTAN'S AUTOMOBILE DELIVERY SYSTEM: LEGAL FRAMEWORKS AND DIGITAL TRANSFORMATION DIRECTIONS	450
Raupov Abdurahmon Ilhomovich	
АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ НА ТУРИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК КАРАКАЛПАКСТАНА	457
Хошимова Камилла Навфал кизи	
ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDA LEAN MENEJMENT TAMOIYILLARI.....	473
Bakayeva Mohira Axrorovna	

TURIZMDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING AMALIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	484
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH..	498
Djumanov Sayitmurod Alimbekovich	
DIGITAL TRANSFORMATION OF BANK ASSET MANAGEMENT: LESSONS FROM THE EU DIGITAL FINANCE STRATEGY FOR UZBEKISTAN (JEAN MONNET MODULE)	505
Shirnova Shokhsanam	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	511
С. Х. Халиков	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ТРАНСПОРТНЫХ УСЛУГ: ТЕНДЕНЦИИ, СТРУКТУРА И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ (ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА)	518
Кайыбеков Парухат Коньисбаевич	
BANK SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: FINTECH YECHIMLARI VA MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISH INNOVATSIYALARI.....	525
Rasulov Nuriddin Abdullayevich, Axmedova Nodira Abdurashid qizi	
UZUM YETISHTIRUVCHI KICHIK VA O'RTA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI VA INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH UCHUN INNOVATSION RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI.....	530
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	541
Mamatkulova Nadira Makkamovna	
YASHIL IQTISODIYOTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR (FINTECH) ORQALI MOLİYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	555
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA 2026-YILGA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISHLAB CHIQLIGAN TAKLIFLAR.....	564
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
SAVDO-MAMLAKAT IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRUVCHI MUHIM OMIL	575
Soliyev Axmadjon	
TASHABBUSLI BYUDJET LOYIHASNINING MOLİYALASHTIRISH MANBALARI TAHLILI	583
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH	591
Daniyarov Kuatbay Dauirxanovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARIDA TURAR-JOY KO'CHMAS MULK BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	601
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLİYAVIY HISOBOT TUZISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	610
Avazov Ilhom Ravshanovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	618
С.Х. Халиков	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLARGA MOLİYAVIY YORDAM KO'PAYTIRISH	625
Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li	
TURIZM XIZMATLARINI TASHKIL ETISHDA TRANSFORMATSIYALASH JARAYONLARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI.....	631
Tajieva Shaxnoza Mamarejabovna	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI.....	642
Rahimov Akmal Matyaqubovich	
INSON KAPITALINI SAMARALI BOSHQARISH ORQALI KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	653
Ochilov Akram Odilovich, Xasanova Aziza Ikromovna	

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING BARQARORLIGINI TA'MINLASH OMILLARI

To'rayev Sardorbek To'rayevich

Toshkent davlat texnika universiteti

Iqtisodiyot va moliya vazirligi,

davlat qarzi departamenti,

yetakchi mutaxassisi

ORCID: 0009-0004-0871-0143

E-mail: Sdrdbktrv@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash omillari tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotda iqtisodiy barqarorlikni oshirish bo'yicha ilg'or mamlakatlar (Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy) tajribasi o'rganilib, ularning sanoat tarmoqlarida raqamli texnologiyalar (IoT, Big Data, AI, ERP, Blockchain)ni joriy etish orqali barqaror rivojlanishga erishish mexanizmlari yoritiladi. Maqolada sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini baholashga nazariy yondashuvlar asosida ichki va tashqi omillar — raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi, innovatsion faoliyat, raqamli boshqaruv madaniyati va kadrlar salohiyati kabi ko'rsatkichlarning ta'siri aniqlanadi. Shuningdek, sanoat korxonalari barqaror faoliyatini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqilib, raqamli transformatsiya omillari bilan integratsiyalashgan model taklif etiladi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston sanoat korxonalarida raqamli yechimlar asosida barqarorlikni oshirish strategiyasini shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, iqtisodiy barqarorlik, sanoat korxonalari, raqamli texnologiyalar, innovatsion rivojlanish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, barqaror rivojlanish.

Аннотация

В данной статье системно анализируются факторы обеспечения экономической устойчивости промышленных предприятий в условиях цифровой трансформации. В исследовании изучен опыт ведущих стран (Германии, Южной Кореи, Китая) по повышению устойчивости промышленного сектора посредством внедрения цифровых технологий (IoT, Big Data, AI, ERP, Blockchain). На основе теоретических подходов к оценке экономической устойчивости определено влияние внутренних и внешних факторов — уровня развития цифровой инфраструктуры, инновационной активности, цифровой культуры управления и кадрового потенциала. Также разработаны организационно-экономические механизмы обеспечения стабильной деятельности промышленных предприятий и предложена модель, интегрированная с факторами цифровой трансформации. Результаты исследования имеют практическое значение для формирования стратегии повышения устойчивости промышленных предприятий Узбекистана на основе цифровых решений.

Ключевые слова: цифровая трансформация, экономическая устойчивость, промышленные предприятия, цифровые технологии, инновационное развитие, организационно-экономический механизм, устойчивое развитие.

Abstract

This article provides a systematic analysis of the factors ensuring the economic sustainability of industrial enterprises under digital transformation conditions. The study examines the experience of leading countries (Germany, South Korea, and China) in achieving sustainable industrial growth through the implementation of digital technologies such as IoT, Big Data, AI, ERP, and Blockchain. Based on theoretical approaches to assessing economic stability, the article identifies the impact of internal and external factors — including the development level of digital infrastructure, innovation activity, digital management culture, and human capital. Furthermore, it proposes organizational and economic mechanisms for ensuring sustainable industrial performance and presents a model integrated with digital transformation factors. The findings have practical significance for developing strategies to enhance the sustainability of industrial enterprises in Uzbekistan through digital solutions.

Keywords: digital transformation, economic sustainability, industrial enterprises, digital technologies, innovative development, organizational-economic mechanism, sustainable development.

KIRISH

So‘nggi yillarda global iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida raqamli transformatsiya jarayonlari hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Sanoat tarmoqlarining raqamlashtirilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik izni kamaytirish orqali korxonalarning iqtisodiy barqarorligini ta‘minlayotgan muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamli texnologiyalar — Internet of Things (IoT), Big Data, Sun‘iy intellekt (AI), ERP va Blockchain tizimlari — korxonalarni yangi avlod boshqaruv modeli sari olib chiqmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, Germaniya, Janubiy Koreya va Xitoy kabi ilg‘or mamlakatlarda raqamli transformatsiya sanoat tarmoqlarining barqarorligini mustahkamlashda asosiy drayver sifatida qaralmoqda. Bu mamlakatlarda ishlab chiqilgan “Industry 4.0”, “Smart Factory” va “Made in China 2025” strategiyalari raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish zanjiriga integratsiyalash orqali yuqori iqtisodiy natijalarga erishish imkonini bermoqda.

O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida ham so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, korxonalar faoliyatida raqamli yechimlarning iqtisodiy barqarorlikka ta‘siri yetarlicha tizimli o‘rganilmagan. Ayniqsa, ishlab chiqarish ritmikasining uzluksizligi, resurslardan oqilona foydalanish, boshqaruvning raqamli madaniyatini shakllantirish va inson kapitalining raqamli kompetensiyasini oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning maqsadi — raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarning iqtisodiy barqarorligini ta‘minlovchi omillarni

aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish va integratsion konseptual modelni ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini samarali boshqarish va barqarorlik strategiyasini shakllantirish uchun amaliy asos yaratadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

So‘nggi yillarda sanoat tarmoqlarida raqamli transformatsiya jarayonlari barqaror rivojlanishning asosiy drayverlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish korxonalarning nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini, balki ularning moliyaviy va ekologik barqarorligini ham oshiradi.

Germaniya tajribasida “Industry 4.0” konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan raqamli integratsiya mexanizmlari (IoT, ERP, CPS) korxonalarni real vaqt rejimida boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni kamaytirish imkonini bermoqda (Kagermann et al.).¹ Janubiy Koreyada esa “Smart Factory Initiative” dasturi orqali ishlab chiqarish zanjirining barcha bosqichlari raqamlashtirilgan, bu esa mehnat unumdorligini 20–30% gacha oshirish imkonini bergan (Lee & Lim).² Xitoyning “Made in China 2025” strategiyasi esa raqamli tarmoqlar, sun‘iy intellekt va Big Data texnologiyalari asosida barqarorlik indikatorlarini avtomatlashtirishga yo‘naltirilgan (Chen et al.).³

Ilmiy manbalarda iqtisodiy barqarorlikni baholashda integratsion yondashuvlar — iqtisodiy, ekologik va raqamli o‘lchovlarning uyg‘unlashuvi asosiy trend sifatida qayd etiladi (Porter & Heppelmann).⁴ Shu nuqtai nazardan, korxona barqarorligi nafaqat foyda ko‘rsatkichlari bilan, balki innovatsion faoliyat darajasi, ma‘lumot oqimlarini boshqarish sifati va inson kapitalining raqamli kompetensiyasi bilan ham belgilanadi.

O‘zbekiston olimlari tomonidan ham (Kenjabayev) sanoat tarmoqlarini raqamlashtirishning barqaror rivojlanishga ta’siri tadqiq etilgan bo‘lib, tadqiqotlar raqamli boshqaruv madaniyatini shakllantirish, innovatsion ekotizimlarni yaratish va AKT infratuzilmasini mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, barqarorlikni ta’minlash uchun raqamli yechimlarni ishlab chiqarish, logistika, marketing va moliyaviy boshqaruv tizimlariga chuqur integratsiya qilish muhim omil hisoblanadi.⁵

¹ Kagermann, Henning, Wolfgang Wahlster, and Johannes Helbig. "Recommendations for implementing the strategic initiative Industrie 4.0: Final report of the Industrie 4.0 Working Group." Forschungsunion: Berlin, Germany (2013): 12-25.

² Lee D., Kim K. National investment framework for revitalizing the R&D collaborative ecosystem of sustainable smart agriculture //Sustainability. – 2022. – T. 14. – №. 11. – C. 6452.

³ Wang, Lulu, and Leyi Chen. "Resource dependence and air pollution in China: Do the digital economy, income inequality, and industrial upgrading matter?." Environment, Development and Sustainability 26.1 (2024): 2069-2109.

⁴ Porter, Michael E., and James E. Heppelmann. "How smart, connected products are transforming companies." Harvard business review 93.10 (2015): 96-114;

⁵ Kenjabayev, Aman T., et al. "Improving the export capacity of enterprises through digital technologies." Shokh library (2025).

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya va smartizatsiya tashabbuslari sanoat korxonalarining barqarorligini ta'minlashda kompleks ta'sir mexanizmiga ega bo'lib, bu ta'sir bir vaqtning o'zida iste'molchilar kapitali, boshqaruv sifati, ichki jarayonlar samaradorligi va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari orqali namoyon bo'ladi. Diagnostika uchun indikatorlar tizimini kodifikatsiyalash va ularni maqsadli (target) hamda nomaqsadli (spillover) ta'sir ob'ektlari bo'yicha ikkita muqobil majmuaga ajratish, kuzatuvlar matritsasini bir xillash, og'irlik koeffitsiyentlari asosida agregatsiyalash natijasida olingan kompozit ko'rsatkichlar korxona darajasidagi natijalar bilan ishonchli bog'liqlik beradi. Kuzatuvlar shuni tasdiqlaydiki, raqamli loyihalarning dastlabki choraklarida mehnat resurslarining qayta taqsimlanishi, funksional vazifalarning yangilanishi va texnik vositalarning almashtirilishi hisobidan ayrim ekspluatatsion ko'rsatkichlarda va mahsulot tannarxining ayrim tarkibiy qismlarida qisqa muddatli tebranishlar yuz beradi; biroq keyingi davrlarda ishlab chiqarish ritmikasining tiklanishi va boshqaruv tizimining intellektuallashtirilishi sababli mazkur ko'rsatkichlar barqarorlashadi va bazaviy trayektoriyadan yuqori yangi muvozanat darajasiga ko'tariladi.

Ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, sof daromad, operatsion foyda va bozor qiymati singari yakuniy natijaviy ko'rsatkichlar smartizatsiya bilan bevosita bog'liq bo'lgan biznes-indikatorlar to'plamiga sezgir: mijozlar bazasining ishonchliligi va sifati, takroriy xaridorlar ulushi, marketing kommunikatsiyalarining samaradorligi, boshqaruv apparati mehnat unumdorligining oshishi, rahbarlar kompetensiyalarining yaxshilanishi, ichki biznes jarayonlarining avtomatlashtirilish darajasi va ishlab chiqarish ritmikasi shular jumlasidandir. Ma'lumotlar tozalanib, ekstremal qiymatlar chiqarib tashlanganda, ayrim moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha bog'liqlik zichligi sezilarli kuchayadi: masalan, sotilgan mahsulot rentabelligida yuqori izohlanish darajasi ($R^2 \approx 0,91$), avtonomiya koeffitsiyenti va umumiy likvidlikda esa o'rtacha-yuqori daraja ($R^2 \approx 0,70-0,72$) qayd etiladi; bu raqamlar smartizatsiya natijalarini moliyaviy barqarorlik bilan integratsiyalashgan tarzda baholash mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, qisqa muddatda "cho'qqili" o'zgarishlarga moyil bo'lgan ko'rsatkichlar (masalan, likvid aktivlar hajmi yoki kapital rentabelligi) bo'yicha regressiya modellari kuchli dispersiya va heteroskedastiklik ta'sirida ehtiyotkor talqinlarni talab qiladi; bu holatda qo'shimcha testlar (Breusch-Pagan, Goldfeld-Quandt va boshqalar) hamda ekspert baholari yordamchi mezon sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Ishlab chiqilgan ikki pog'onali baholash yondashuvi amaliy jihatdan o'zini oqladi: birinchi pog'onada DTSP natijalari bilan moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasida kamida yarim yillik barqaror bog'lanishlar aniqlanadi; ikkinchi pog'onada esa turli obyektlar va universal biznes-indikatorlar kesimida muqobil munosabat modellari qurilib, eng katta izohlanish darajasiga ega bo'lganlari tanlab olinadi. Ushbu yondashuvni chiziqli bir xilda optimallashtirish sxemasi bilan bog'lash (maqsad funksiyalarini – qoplanmagan xarajatlarni minimallashtirish, reja ko'rsatkichlaridan salbiy og'ishlarni minimallashtirish va ishlab chiqarish ritmikasi buzilishlarini

minimallashtirish – teng og‘irlikda ko‘rib chiqish) korxona rahbariyatiga byudjet cheklovlari, kredit shartlari, boshqaruv tizimi yuklanishi va rejalashtirilgan KPI larga erishish o‘rtasida ratsional trade-off qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, moliyalashtirish shartlari keskin qat’iy bo‘lmagan vaziyatlarda reja–fakt salbiy og‘ishlarini qisqartirish funksiyasi ustuvorlashtirilganda, keyingi choraklarda ishlab chiqarish ritmi barqarorlashadi va umumiy rentabellik ko‘rsatkichlari ijobiy zonaga ko‘chadi; kredit resurslari cheklangan holatlarda esa qoplanmagan xarajatlarni minimallashtirishning ustuvor qo‘llanilishi likvidlik koeffitsiyentlari va avtonomiya indeksleri bo‘yicha “ehtiyotkor ijobiy” dinamikani ta’minlaydi.

Resurslardan oqilona foydalanish va aylanish iqtisodiyoti tamoyillarini (energiya iste’molini real vaqt tahlillari orqali kamaytirish, chiqindilarni minimallashtirish, qayta ishlash logistikasi va dizaynni qayta ko‘rib chiqish) raqamli platformalarga integratsiyalash korxonalarning ekologik–iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi hamda ESG ko‘rsatkichlari bo‘yicha afzalliklarni yuzaga chiqaradi. Ta’kidlash joizki, qisqa muddatda aloqa tizimi xarajatlari va ish haqi fondi kabi “yumshoq” investitsiyalar o‘ssishi kuzatiladi; biroq bu xarajatlar intellektual mehnat faolligi, kommunikatsiyalar sifatini yaxshilash va jarayonlarni avtomatlashtirish orqali keyingi davr kapital qaytimi va operatsion samaradorligiga ijobiy hissa qo‘shadi. Natijalarning kontekstga sezgirliги ham qayd etildi: AKT infratuzilmasi nisbatan rivojlangan, boshqaruv apparati intellektuallashuvi yuqori bo‘lgan korxonalarda ijobiy ta’sirlar tezroq materiallashadi; tashqi sharoitlari volatilligi yuqori bo‘lgan hududlarda esa natijalar “yumshatilgan” amplitudada, biroq barqaror yo‘nalishda namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston sharoitida, sanoatni modernizatsiya qilishga qaratilgan qarorlar va hududiy sanoat salohiyatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar bilan uyg‘un holda raqamli transformatsiyani qo‘llash, korxonalarda indikatorlar tizimini (mijozlar sifati, jarayonlar avtomatlashtirilishi, boshqaruv kompetensiyasi, ritmika, energiya intensivligi va boshqalar) muntazam monitoring qilish hamda byudjet–ritm–KPI uchburchagida optimallashtirish asosida boshqarish iqtisodiy barqarorlikni kuchaytiradi. Shunday qilib, tahlil shuni ko‘rsatadiki, smartizatsiya loyihalarining samaradorligi faqat texnologik joriy etish faktiga bog‘liq emas; u maqsadli indikatorlar arxitekturasini, ma’lumotlarning sifatli boshqaruvi, tejamkor, lekin tizimli investitsiyalar, ishlab chiqarish ritmikasini saqlash bo‘yicha intizom va boshqaruvning o‘rganishga ochiq madaniyati bilan birgalikda barqaror natija beradi (1-rasm).

1-rasmda keltirilgan model raqamli transformatsiya jarayonida sanoat korxonalari barqarorligini ta’minlashning bosqichma-bosqich mexanizmini ifodalaydi. Ushbu yondashuvda har bir bosqich o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning izchil amalga oshirilishi korxonaning raqamli, iqtisodiy va ekologik barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.



1-rasm. Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya asosida barqarorlikni ta'minlashning integratsion konseptual modeli¹

Birinchi bosqichda raqamli transformatsiya jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy muammolar, risklar va texnologik zaifliklar aniqlanadi, bu esa strategik ustuvor yo'nalishlarni tanlashga asos yaratadi. Ikkinchi bosqichda barqarorlik ko'rsatkichlari (KPI, ESG, energiya tejamkorlik, chiqindi kamaytirish) tizimi shakllantirilib, mavjud texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi baholanadi.

Uchinchi bosqichda texnologik va inson kapitalini o'z ichiga olgan transformatsiya portfeli ishlab chiqiladi hamda risk va resurslar balansini optimallashtirish mexanizmlari belgilanadi. To'rtinchi, yakuniy bosqichda esa joriy etilayotgan raqamli loyihalarning hajmi, investitsion samaradorlik ko'rsatkichlari (ROI, NPV, IRR) hamda uglerod izini kamaytirish maqsadlari aniqlanadi.

Mazkur model asosida raqamli texnologiyalarni kompleks joriy etish sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish ritmikasin barqarorlashtirish va ekologik xavfsizlikni mustahkamlashga olib keladi. Shunday qilib, ushbu bosqichlar ketma-ketligi raqamli transformatsiya sharoitida korxona barqarorligini ta'minlovchi integral boshqaruv mexanizmi sifatida e'tirof etilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli transformatsiya bugungi kunda sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korxonalar faoliyatiga zamonaviy raqamli texnologiyalar — IoT, Big Data, ERP, AI va Blockchain tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish ularning iqtisodiy, ekologik va tashkiliy barqarorligiga kompleks ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, resurslardan oqilona foydalanish, real vaqt monitoringi va ma'lumotlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlarining shakllanishi barqarorlikning yangi bosqichini belgilaydi.

¹ Muallif ishlanmasi

1-rasmda keltirilgan “Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining barqarorligini ta’minlashning integratsion konseptual modeli” mazkur jarayonni tizimli yondashuv asosida ifodalaydi. Model to’rt bosqichdan iborat bo’lib, birinchi bosqichda korxona faoliyatiga ta’sir etuvchi asosiy muammolar, texnologik zaifliklar va raqamli tayyorgarlik darajasi aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda barqarorlikni ta’minlovchi asosiy ko’rsatkichlar (KPI, ESG, energiya samaradorligi, chiqindilar hajmi, ishlab chiqarish ritmika ko’rsatkichlari) tizimi ishlab chiqiladi hamda ularning iqtisodiy natijalar bilan o’zaro bog’liqligi baholanadi. Uchinchi bosqichda texnologik va inson kapitalini o’z ichiga olgan transformatsiya portfeli shakllantiriladi, risklar va resurslar balansi optimallashtiriladi. To’rtinchi, yakuniy bosqichda esa raqamli loyihalarning joriy etish hajmi, investitsion samaradorlik (ROI, NPV, IRR) hamda uglerod izini kamaytirish maqsadlari aniqlanib, korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanish strategiyasiga integratsiyalanadi.

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, raqamli transformatsiya jarayonlari faqat texnologik yangilanish emas, balki tashkiliy-iqtisodiy boshqaruvning tubdan yangilanishini ham talab qiladi. Raqamli yechimlarni joriy etish orqali ishlab chiqarish ritmikasinı barqarorlashtirish, moliyaviy oqimlarni nazorat qilish, iste’molchi bilan o’zaro aloqalarni raqamli platformalarda boshqarish va energiya tejamkorlik siyosatini kuchaytirish mumkin bo’ladi. Shu bilan birga, korxona rahbariyati uchun strategik qarorlarni qabul qilishda sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahlili (Big Data analytics) asosida prognozlash tizimlarini tatbiq etish raqobatbardoshlikni ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Kagermann, Henning, Wolfgang Wahlster, and Johannes Helbig. "Recommendations for implementing the strategic initiative Industrie 4.0: Final report of the Industrie 4.0 Working Group." Forschungsunion: Berlin, Germany (2013): 12-25.
2. Lee D., Kim K. National investment framework for revitalizing the R&D collaborative ecosystem of sustainable smart agriculture //Sustainability. – 2022. – T. 14. – №. 11. – C. 6452.
3. Wang, Lulu, and Leyi Chen. “Resource dependence and air pollution in China: Do the digital economy, income inequality, and industrial upgrading matter?” Environment, Development and Sustainability 26.1 (2024): 2069-2109.
4. Porter, Michael E., and James E. Heppelmann. "How smart, connected products are transforming companies." Harvard business review 93.10 (2015): 96-114;
5. Kenjabaev, Aman T., et al. “Improving the export capacity of enterprises through digital technologies.” Shokh library (2025).



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**